

## BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA WEB TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Xasanboyev Muhammadhikmatulloh Azizulloh o'g'li  
ADPI Matematika va informatika kafedrasи  
2-kurs magistri*

**Annotatsiya:** Maqolada Web-texnologiya tushunchasiga berilgan ta'riflar hamda Web-texnologiya texnologiyalardan foydalanishga oid turli yondashuvlar ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, Web-texnologiyalar ta'limni axborotlashtirish sharoitlarida informatika o'qituvchilari metodik faoliyatining komponenti sifatida qaralishi, hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi zarur ekani aytilgan.

**Kalit so'zlar:** Web-texnologiya, smartfon, rlangshet, mobil ilova, pedagogik faoliyat, o'qituvchi kompetensiyasi, innovatsion kompetentlik, elektron ta'lim, internet, kompyuter tarmog'i elektron hujjat.

**Аннотация:** В статье дается научное обоснование определений понятия Web-технологии, а также различных подходов к использованию Web-технологий. Также было отмечено, что Web-технологии должны рассматриваться как компонент методической деятельности учителей информатики в условиях информатизации образования, а также служить для повышения эффективности обучения.

**Ключевые слова:** Web-технология, смартфон, планшет, мобильное приложение, педагогическая деятельность, компетентность учителя, инновационная компетентность, электронное обучение, интернет, компьютерная сеть электронный документ.

Kundan-kunga ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan bir qatorda Web-texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kuchayib bormoqda. Web-texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tadbiq qilinishi esa bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashda Web-texnologiyalardan foydalanish metodikasini ta'limni internetlashtirish jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Web haqida so'z yuritilganda yagona axborot muhitini tashkil etuvchi elektron hujjatlar, internet, kompyuter tarmog'i, tarmoqda mavjud bo'lgan millionlab Web-saytlar majmuasi tushuniladi.

Web-texnologiyalar esa multimedia paketlari va gipermurojaatli belgilar tilidan foydalangan holda kompyuterlarni o'zaro bog'lash, hamkorlikda axbortlarni qayta ishslash, o'zaro ta'sir etish metodlarini o'z ichiga oladi.

S.F.Katerjina ta’rifiga ko‘ra, Web-texnologiyalar turli xil ta’lim tizimlarini yaratish imkonini beruvchi giperssylkalarga asoslangan navigatsiya texnologiyasi bo‘lib, u Internet tarmog‘i foydalanuvchilarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha masalalarni hal etishning texnik, kommunikatsion, dasturiy usullari majmuasiga ega [2].

I.M.Boynazarov Web-texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil qilishning matematik va dasturiy ta’minotini tadqiq etgan bo‘lib, Web-texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini boshqarishning intelektual tizimini ishlab chiqqan hamda elektron-o‘quv resurslarning Web-texnologiyalarga asoslangan o‘qitish tizimiga joylashtirishning tegishli dasturiy ta’minotini yaratgan va Web-texnologiyalar asosida masofaviy test-nazorat tizimi hamda dastur bajarilishini testlovchi avtomatlashtirilgan tizimlarning dasturiy ta’minotini yaratib, uni o‘quv jarayonlarida joriy etish tamoyillarini aniqlagan [1].

Shuningdek, bugungi kunda informatika ta’limini internetlashtirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida butunjahon o‘rgimchak to‘ri resurslari bilan ishlash: topshiriqlarni elektron pochta orqali jo‘natish, maxsus sayt va portallarni o‘rganish, forum va chatlar yordamida muloqot qilish; internent orqali aralash va masofaviy ta’limni qo‘llab-quvvatlash uchun ta’limni boshqarish tizimini tadbiq qilish: Moodle; Web xizmatlaridan foydalanish: bloglar, Wiki, onlayn ilovalar asosida interfaol ta’lim muhitini yaratishni belgilash mumkin.

Ta’lim jarayonida Web-texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha I.M.Boynazarov, T.T.Vezirov, A.V.Kozlova, M.M.Nimatulaev, Yu.S.Ponomareva, M.R.Fayzieva, V.A.Filippov, Ye.V.Karmanova va Ye.D.Patarakinlarning ishlarida bir qator tasniflar berilgan bo‘lib, N.Xaytullaeva ham ilmiy ishlarida, Web-texnologiyalarning ta’limdagi o‘rnini ko‘p qirrali deb aytadi va uni quyidagi tasniflaydi:

- axborot, jumladan talabaga zarur bo‘lgan o‘quv materiallarini tez yetkazib berish;
- ijtimoiylashuv, kommunikativ va axborot texnologiyalarini qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi;
- shaxsiy qobiliyatlarni yuzaga chiqarish va rivojlantirish vositasi;
- ta’lim muhitining ochiqligini, adaptivligini ta’minlash hisoblanadi[3].

Pedagog olim M.M.Abdurazakovning fikricha, ta’limni axborotlashtirish sharoitida informatika o‘qituvchisi o‘quv jarayonida ta’limiy Web-texnologiyalardan samarali foydalanish uchun tayyor bo‘lishi hamda ta’lim rivojlanishining zamонавиу tendensiyalari(uzluksiz ta’lim, ochiq ta’lim, masofaviy ta’lim)ga mos holda o‘qituvchi o‘z ta’limiy Web-resurslarini yaratish vosita va usullarini o‘zlashtirishi zarur.

Informatika o‘qituvchilarida Web-kuzatuvchi (Web-looker), Web-foydalanuvchi (Web-user), Web-yaratuvchi (Web-creator) kabi Web-

texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarining shakllanganlik darajalarini ajratish mumkin.

Informatika o‘qituvchisi ta’lim jarayoniga Web-texnologiyalarni joriy etar ekan, albatta informatikani o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olishi zarur. Zamonaviy informatika o‘qituvchisining vazifasi ta’lim oluvchilarda axborot javobgarligini kuchaytirish, ularni hozirgi zamonaviy axborot makonida yo‘l topa bilish, axborotni qidirish, tanlab olish, Web-texnologiyalarga asoslangan manbalarni tanqidiy baholash, zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida xavfsiz muloqotni o‘rgatish hisoblanadi. Ta’lim jarayonining bunday o‘zgartirilishi talabalarni mustaqil bilim olishiga va ularning tanqidiy fikrlashining ortishiga yordam beradi.

Ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etilishi bugun hayotimizga chuqur kirib borib ulgurgan Web-texnologiyalarni ta’lim tizimiga keng joriy etish, milliy axborot-ta’lim resurslarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining doimo e’tibori markazida turishi lozimligini ko‘rsatadi.

Bugunga kelib, mamlakatimizda ham o‘quv jarayonining kompleks avtomatlashtirilgan ta’lim va monitoring tizimlari yaratilmoqda. Bunday tizimlarni yaratishdan ko‘zlangan maqsad – Internet, jumladan Web-texnologiyalardan foydalilanilgan holda professor-o‘qituvchilar, talabalar va ularning ota-onalari hamda ta’limni boshqarish tizimi o‘rtasida internet orqali muloqot tizimini yaratishdan iboratdir. Bunday tizim talabalarga eng muhim va foydali axborotlarni tez va sifatli yetkazib berish bilan birga ta’lim jarayonining shaffofligini ham ta’minlaydi. Professor-o‘qituvchilar, talabalar va ularning ota-onalari hamda ta’limni boshqarish tizimi o‘rtasida “internet orqali tezkor muloqot tizimini yaratilishi esa vujudga keladigan muammolarni tezda bartaraf etish imkonini beradi.

Uzluksiz ta’lim tizimi samaradorligini oshirish mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlashning ishonchli kafolati sifatida oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Bu boradagi sa’y-harakatlar, avvalo, ta’lim mazmunini yanada boyitish, uning sifatini yuksaltirishga, qolaversa, ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirib, Web-texnologiyalar ta’limni axborotlashtirish sharoitlarida informatika o‘qituvchilarini metodik faoliyatining komponenti sifatida qaralishi, hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Катержина С. Ф. Развитие познавательной самостоятельности студентов технического вуза при обучении математике с использованием Web-технологий: дисс. ...канд.пед.наук. – Ярославль. 2010. – 174 с.
2. Бойназаров И.М.. Web-технологиялар асосида таълим жараёнини ташкил қилишнинг математик ва дастурий таъминоти: автореф. ... тех.фан.ном.. – Тошкент, 2011, – 23 б.

3. Xaytullayeva N.S.. Ta’lim jarayonida Web –texnologiyalardan foydalanish // Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’lnining o’zaro hamhorlik aloqalari: yutuq va muammolar. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. TDIU. – T.: 2017.

